



## 1945-1960-YILLARDA O‘ZBEKİSTONDA MAK TABGACHA TARBIYA MUASSASALARINING KO‘PAYIB BORISHI

### УВЕЛИЧЕНИЕ КОЛИЧЕСТВА ДОШКОЛЬНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В УЗБЕКИСТАНЕ В 1945-1960 ГОДАХ

### THE INCREASING NUMBER OF PRESCHOOL INSTITUTIONS IN UZBEKISTAN IN 1945-1960

**Tishabayeva Irodaxon Rasulovna**

*Toshkent axborot texnologiyalari universiteti Farg‘ona filiali*

*Tarix fanlari falsafa doktori PhD*

*O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti (v.b.)*

*[tishabayevirodahon@gmail.com](mailto:tishabayevirodahon@gmail.com). +91-651-51-36*

**ORCID: 0009-0001-3081-8917**

#### **Annotatsiya.**

Ushbu maqolada 1945-1960-yillarda O‘zbekistonda maktabgacha tarbiya muassasalarining Ko‘payib borishi, ularning moddiy-texnik bazasi, maktabgacha yoshdagи bolalarni ta’lim muassasalariga qamrab olish darajasi ilmiy, tarixiy adabiyotlar va arxiv manbalari asosida yoritilgan. O‘zbekiston SSRda bolalarni bog‘chalarga qamrab olish uchun sovet hukumati tomonidan joylardagi tashkilotlarga rejalar berilgan bo‘lsa-da, oblast, rayon, shahar xalq ta’limi boshqarmalari, ko‘pincha, hukumat tomonidan belgilangan rejaga mas’uliyatsizlik bilan yondashganligini aniqlangan. Tadqiqotlar natijasida, respublika qishloq joylaridagi maktabgacha tarbiya muassasalarini kengaytirish masalalari ham e’tibordan chetda qolmaganligi, bu nafaqat o‘sib kelayotgan yosh avlodning ta’lim-tarbiya manfaatlari uchun, balki mehnat kuchiga talab ancha kuchli bo‘lgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun zarur bo‘lganligini tahlil qilindi. Shuningdek, shahar va qishloq bolalar bog‘chalariga bolalar qatnovi va demografik ko‘rsatkichlari ham tadqiqot doirasiga tortilgan.

**Kalit so‘zlar:** bolalar bog‘chasi, maktabgacha tarbiya, tizim, dolzarb, sovet, kolxoz, so‘rovnoma, zaif, mavsumiy, xizmat, qishloq.

### Аннотация.

В данной статье освещается рост числа дошкольных учреждений в Узбекистане в 1945-1960 годах, их материально-техническая база, уровень охвата дошкольников образовательными учреждениями на основе научной, исторической литературы и архивных источников. В то время как в Узбекской ССР советские власти выдавали планы организации детского сада на местах, областные, районные, городские управления народного образования часто безответственно подходили к плану, установленному правительством. В результате проведенных исследований было проанализировано, что не остались без внимания и вопросы расширения дошкольных учреждений в сельской местности республики, что было необходимо не только для образовательных и воспитательных интересов подрастающего молодого поколения, но и для развития сельского хозяйства, где спрос на рабочую силу был значительно выше. В исследование также были включены посещаемость детских садов в городских и сельских районах и демографические данные.

**Ключевые слова:** детский сад, дошкольное учреждение, система, актуальный, советский, колхозный, опрос, слабый, сезонный, сервис, сельский.

### Annotation.

*This article covers the increasing number of preschool institutions in Uzbekistan in the 1945-1960s, their material and technical base, the level of coverage of preschool children to educational institutions on the basis of scientific, historical literature and archival sources. While plans were given to on-site organizations by the Soviet government to cover children in kindergartens in the Uzbek SSR, the oblast, rayon, urban public education departments were often found to have approached the government-mandated plan irresponsibly. As a result of the research, it was analyzed that the issues of expanding preschool institutions in rural areas of the Republic were also ignored, which was necessary not only for the educational interests of the growing younger generation, but also for the development of Agriculture, where the demand for Labor is much stronger. Child attendance and demographics to urban and rural kindergartens were also drawn into the scope of the study.*

**Keywords:** kindergarten, preschool, system, topical, soviet, collective farm, questionnaire, weak, seasonal, service, rural.

### KIRISH

Bugun kunda respublikamizda maktabgacha ta'lif tizimi har tomonlama sog'lom va barkamol bola shaxsini tarbiyalash va tizimli o'qitishga tayyorlash masalasida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shu sabab, davlatimiz rahbari maktabgacha ta'lif tizimida amalga oshirilayotgan islohotlar, farmonlar va qarorlarda belgilangan vazifalar ijrosiga

katta e'tibor qaratmoqda. Yurtimizda maktabgacha ta'lim muassasalarini faoliyatini tubdan yaxshilash, maktabgacha yoshdagi bolalarni qamrovini oshirish, zamonaviy tizim yaratish, bu masalada ilg'or xorijiy tajribani o'rganish masalalarida keng ko'lamli tadbirlar amalga oshirilishi quvonarli holdir. Sohadagi islohotlar ushbu tizimni tubdan yangilanishiga sabab bo'lmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2021-yil 20-may kuni "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishi bu borada amalga oshirilayotgan ishlarni yangi bosqichga ko'tardi [1.]. Davlatimiz rahbarining, "Bu borada, avvalambor, yoshlar va bolalarga e'tibor va amaliy g'amxo'rlik ko'rsatish, ularni jismoniy va ma'naviy barkamol etib tarbiyalashga alohida ahamiyat qaratmoqdamiz. Bolalarni kichik yoshdan boshlab rivojlantirish orqali kelajakda ularning o'zligini to'la namoyon etishiga mustahkam zamin yaratayapmiz. Zero, bu ezgu maqsadimiz yo'lida sarflangan investitsiyalar ertaga bir necha barobar ortig'i bilan qaytishiga shubha yo'q", – deb ishonch bildirishlari bejiz emas [2.].

Ayni vazifalardan kelib chiqib, maktabgacha ta'lim tizimining tarixi, buguni va ertasi masalalarini o'rganish, e'tibor qaratish zarurati vujudga keldi.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR:**

Maqola umum qabul qilingan tarixiy metodlar-tarixiylik, qiyosiy-mantiqiy tahlil, ketma-ketlik, xolislik tamoyillari asosida yoritilgan bo'lib, II-jahon urushidan keyin O'zbekistonda maktabgacha ta'lim muassasalarining ko'payib borishi, maktabgacha yoshdagi bolalarni ta'lim muassasalariga qamrab olinishi davriy nashrlar va arxiv manbalarida keltirilgan ma'lumotlar asosida tahlil qilindi. Ushbu yillarda maktabgacha ta'lim muassasalariga bolalar qatnovining oshib borishi, shahar va qishloq bog'chalaridagi o'rtasidagi tafovut, solishtirish, qiyoslash usullari orqali yoritishga harakat qilingan.

Sovet hokimiysi yillarida maktabgacha ta'lim tarixiga oid bir necha ilmiy izlanishlar olib borilgan bo'lsada, o'sha davrning g'oyaviy konsepsiyasi asosida yaratilgan. Ushbu davr tarixshunosligida yirik ilmiy asarlar nashr etilmagan, lekin mavzuning ayrim jihatlari qisman yoritilgan tadqiqotlar mavjud. Sovet davrida maktabgacha ta'lim tizimi haqida pedagogika sohasi vakillarining bir qator asarlari nashr etilgan. Bu asarlarni o'rganish davomida urushdan keying yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarini ko'payib borishi, qishloq va shahar bolalar bog'chalari o'rtasidagi tavofut, ajratilgan mablag'lar haqidagi statistik ma'lumotlar bilan tanishishimiz mumkin. Misol uchun, A. Nikolskaya o'zining «Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyasida izchillik va o'zaro bog'lanish» nomli asarida [3; 3-b.] 1960-yillarda mavjud bolalar yasli va bog'chalarini bitta bolalar tarbiya muassasalariga birlashtirishning ijobiy tomonlarini yoritib bergen. Shu bilan birga, M.Badalova o'zining «O'zbekiston SSRda maktabgacha tarbiyaning rivojlanishi tarixidan» nomli dissertatsiyasida o'sha davrdagi qishloq bog'chalarining holati, aholining maktabgacha ta'lim muassasalariga bo'lgan ehtiyoji arxiv materiallaridan foydalangan holda yoritib berishga harakat qilgan

[4; 35-b.]. Bundan tashqari mavjud muammolarga ham to'xtalib, bog'chalar yetishmasligi va ularning qurilishiga ajratilgan mablag'lar qisqartirilganligini aytib o'tgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng, barcha sohalarda bo'lgani singari maktabgacha ta'lif sohasini rivojlantirish, jahon andozalariga mos ravishda institutsional jihatdan qayta ko'rib chiqishga bo'lgan ehtiyojning kuchayishi natijasida olimlarimiz oldiga dolzarb vazifa qo'yildi. N.Jo'raeva o'zining "O'zbekistonda xotin-qizlarga munosabat (XX asrning 20-80-yillari misolida). Nomli o'quv qo'llanmasida qishloq bolalar bog'chalari tarixiga to'xtalib o'tadi [5; 70-189-b].

Mavzuni tadqiq qilish jarayonida sovet hokimiyyati yillarda chop etilgan "Qizil O'zbekiston", "O'zbekiston xotin-qizlari" kabi jurnal sahifalarida maktabgacha ta'lif tizimi, bog'cha va yaslilar haqida e'lon qilib borilgan maqolalardan keng foydalanildi.

Tadqiqotni amalga oshirishda ushbu manbalarni o'rganib, qiyosiy tahlil qilib, ilmiy xulosalarning olinishi tanlangan mavzuni tarixiy nuqtai nazardan kompleks o'rganish va ob'ektiv yoritishda muhim ahamiyat kasb etadi.

### NATIJALAR VA MUHOKAMA:

II-jahon urushidan keyingi yillarda sovet hukumati bolalar bog'chalari tarmoqlarini kengaytirish, ularning moddiy-texnik bazasini mustahkamlash uchun zarur mablag'larni yo'naltirib, ta'lif-tarbiya ishlari sifatini oshirishga, malakali kadrlarini tayyorlashga katta e'tibor qarata boshladи. Maktabgacha tarbiya muassasalari tarmoqlarini kengaytirish orqali ayollarni zavod va fabrikalarga, qishloq xo'jaligi ishlariga keng jalg etish ham rejalashtirilgan. Mazkur rejaga muvofiq, davlat byudjetidan xalq ta'lifi uchun 1 milliard so'm, shu jumladan, maktabgacha ta'lif uchun 32 mln. so'm miqdorida mablag' ajratilgan. Bunga ko'ra, O'zbekiston SSR bo'yicha 1950-yil yakuniga qadar, maktabgacha yoshdagi bolalarning 60 ming nafari, shu jumladan, 31 ming nafari Xalq ta'limi ministrligi tizimidagi, qolganlari Sog'liqni saqlash ministrligi hamda kolxozi va sovxozlarga qarashli bolalar bog'chalariiga qamrab olinishi ko'zda tutilgan [6;12-b.].

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadi, urushdan keyingi yillarda maktabgacha tarbiya muassasalari tarmoqlari rivojida birmuncha nomutanosibliklar kuzatilgan. Jumladan, urushdan keyingi dastlabki yillarda maktabgacha tarbiya muassasalarining bolalarni qamrab olish ko'rsatkichi past darajani ko'rsatgan. Sabablaridan biri sifatida SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1943-yil 8-sentabrdagi 964-son qarori bilan 1944-yildan boshlab 7 yoshli bolalarning ham boshlang'ich maktablarga qamrab olinishini hamda urush davrida tug'ilishning keskin kamayib ketganligini ko'rsatish mumkin [7; 14-b.]. Arxiv ma'lumotlarini tahlil qilganimizda, 1945-yilda O'zbekiston SSR bo'yicha jami 23378 nafar bola doimiy bolalar bog'chalariiga qatnaganligiga guvoh bo'lamiz [8; 241-b.]. Ulardan 17565 nafari shaharlardagi, 5813 nafari qishloq bolalar bog'chalarda tarbiyalangan. Bu masala Farg'ona vodiysi misolida tahlil qilinsa,

quyidagicha manzara ko‘zga tashlanadi: Andijon oblastida 1371 nafar tarbiyalanuvchi doimiy maktabgacha tarbiya muassasalariga qatnagan. Ulardan 754 nafari shahar va 617 nafari qishloq bog‘chalariga jalg qilingan. Farg‘ona oblastida 1451 nafar tarbiyalanuvchilar bo‘lib, ulardan 1000 nafari shaharlardagi, 451 nafari qishloqlardagi doimiy bog‘chalarga qatnagan. Namangan oblastida jami tarbiyalanuvchilar soni 1881 nafarni tashkil etib, ulardan 1357 nafari shaharlardagi, 524 nafari esa qishloqlardagi doimiy bog‘chalarda tarbiyalangan.

Shahar aholisi odatda zikh joylashganligi sababli maktabgacha tarbiya muassasalari 4, 6, 12 guruhli bo‘lgan va bitta bolalar bog‘chasi 100 nafardan 280 nafargacha bolalarni qamrab olgan. Xususan, 1948-yilda Andijon shahri Xalq ta’limi tizimida 8 ta bolalar bog‘chalari mavjud bo‘lib, ularda 400 nafar bolalar tarbiyalangan [9; 7-b].

Qishloq bog‘chalari esa ko‘pincha 1-2 ta guruhli, kamdan-kam hollarda 4 ta guruhli bo‘lib, 1 ta bolalar bog‘chasida 30 nafardan 100 nafargacha bolalar tarbiyalangan. Shuning uchun ham, qishloq bolalar bog‘chalari va yaslilari son jihatdan ko‘p bo‘lsa-da, ularda bolalar o‘rni son jihatdan oz bo‘lgan. 1946-yilda Buxoro oblastida uchta sog‘lomlashtirish bolalar maydonchasi bo‘lib, 12 soatlik grafik asosida ishlagan. Bunday turdagи bolalar maydonchalari Buxoro shahrida 300 nafar, Kogonda 50 nafar, G‘ijduvonda esa 50ta bolaga mo‘ljallangan [10; 4-b.].

Respublika qishloq joylaridagi maktabgacha tarbiya muassasalarini kengaytirish masalalari ham dolzarb hisoblanib, nafaqat o‘sib kelayotgan yosh avlodning ta’lim-tarbiya manfaatlari uchun, balki mehnat kuchiga talab ancha kuchli bo‘lgan qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan. Paxta dalalari va chorvachilik fermalarida asosiy mehnat ayollar, ya’ni onalar tomonidan bajarilgan. Xotin-qizlarni ishlab chiqarish va ommaviy-siyosiy ishlarda yanada faol qatnashishlarini ta’minalashda bolalar yaslisi hamda bog‘chalarining roli katta edi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston SSR Ministrlar Soveti tomonidan 1948-yil 16-martda “Kolxozi bolalar maydonchalari ahvolini yaxshilash to‘g‘risida”gi va 1949-yil 25-fevralda “Ekin ekish davrida kolxozchilarga madaniy, tibbiy-sanitar xizmat ko‘rsatish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari qabul qilingan [11; 93-b.]. Bu qarorlar ijrosini ta’minalash maqsadida kolxozlarda mavjud bolalar maydonchalarini obodonlashtirish va yangi bolalar bog‘chalarini barpo etish ishlari jadal boshlab yuborilgan.

Statistik ma’lumotlar bu kabi bog‘chalar qancha bolalarni qamrab olganligi haqida aniq raqamlar beradi. Respublikada 1945-yilda 6174 ta bolalar maydonchalarida 78135 nafar bolalar tarbiyalangan bo‘lsa [12; 239-b.], 1949-yilda kolxozi maydonchalariga rejadagi 180 ming nafar bola o‘rniga 120 ming nafar bola jalg etilgan, ya’ni qamrov rejasi 80 foizga bajarilgan [13; 5-b.]. Samarqand viloyati kolxozi bolalar bog‘chalarida 1949-yil 20-avgust holatiga 18066 nafar bolalar qatnagan bo‘lsa, 20-sentabr holatiga 14959 nafarga kamaygan [14; 1-b.]. Buning asosiy sabablari, kolxozi

maktabgacha ta’lim muassasalarida sharoit sanitar talablariga javob bermagan, yangi mavsumiy bog‘chalar tashkil etilmagan. Aksariyat bolalar maydonchalari sharoit yaxshi bo‘lmagan joylarda ochilgan, shuning uchun ham ularga bolalar to‘liq jalb etilmagan, bu kabi bog‘chalar qisqa vaqt davomida faoliyat ko‘rsatgan.

1950-yil 7-aprelda O‘zbekiston SSR Maorif Ministrligining 328-sodan «Kolxozchi ayollarga madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish uchun kolxozlarda bolalar muassasalari tarmog‘ini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori qabul qilingan. Bu qaror ijrosini ta’minalash maqsadida joylarda yangi maktabgacha tarbiya muassasalari tashkil etilgan. Xususan, 1950-yilda Xorazm viloyati kolxozlarida bolalar muassasalari ishlarini yo‘lga qo‘yish oyligi o‘tkazildi. Tumanlarga maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlari va vrachlardan 22 kishi, tumanlardan kolxozlarga 189 kishi yordamga jo‘natildi. Natijada 160 ta yasli va bog‘chalar faoliyati yaxshilandi va qo‘srimcha 686 nafar ayollar dalaga ishga chiqish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Samarqand viloyati Jizzax tumani Budyonniy nomli kolxozda bolalar muassasasi uchun 7 xonali bino qurildi va jihozlar bilan ta’minlandi. Natijada kolxozchi ayollar dalaga o‘z vaqtida kelib, paxta topshirish rejasini muddatida bajardilar. O‘zbekiston paxtakorlarining 7-qurultoy vakillari “xalqlar dohiysi” Stalinga yozgan maktublariga javoban 1951-yilda o‘tgan yilga nisbatan 500 ming tonna ortiq paxta topshirish majburiyatini oldilar. Bu majburiyatni bajarish uchun tez fursatlarda bolalar muassasalarini faoliyatini yo‘lga qo‘yish massalalari muhokama qilingan [15; 16-b.]. Bundan kelib chiqadiki, bu davrda ko‘proq xotin-qizlarni dala ishlariga jalb etish maqsadida maktabgacha ta’lim muassasalarini zo‘r berib ko‘paytira boshlaganlar.

1955-yilda O‘zbekiston SSR Sog‘liqni Saqlash Ministrligining Bolalarga davolash-profilaktika yordami ko‘rsatish boshqarmasi va Respublika bolalar metod kabineti tomonidan «Kolxozi mavsumli bolalar muassasalari to‘g‘risida Nizom» qabul qilindi. 1964-yilda Nizomning qayta ishlangan va to‘ldirilgan shakli e’lon qilindi [16;]. Bu nizomda kolxozlardagi mavsumiy maktabgacha tarbiya muassasalarining faoliyati tartibga solish me’yoriy qoidalari belgilandi.

Ko‘p hollarda kolxoz ma’muriyatları maktabgacha tarbiya muassasalari uchun binolar ajratishda mas’uliyatsizlik bilan yondashgan. Aksariyat bog‘chalar foydalanishga yaroqsiz binolarda, bir-ikki xonali moslashtirilgan binolarda joylashgan edi. 1954-1965-yillarda maxsus binolar yo‘qligi sabab ko‘p qishloqlarda mahalla masjidlari berkitilib mavsumiy bolalar bog‘chalariga aylantirila boshlandi. Misol uchun, Toshkent shahridagi «Qizil-Tovush», «Sarichopon», «Navoiy», «Telman» (Toshkent viloyati) kabi bir qancha mahallalarning masjidlari berkitilib bolalar bog‘chasiga aylantirildi. Namangan viloyati Zadaryo tumanidagi 19-bolalar bog‘chasi machitga joylashgan [17; 110-b.]. Bolalar uchun bu kabi ochilgan bog‘chalarining sharoiti umuman talabga javob bermagan.

Sovet hukumatining agrar siyosatiga asosan erkaklar bajarishi lozim bo‘lgan ishlarning 50 foizi ayollar zimmasida bo‘lsa-da, amalda kolxoz va sovxozlardagi ayollar ishchi kuchining 80 foizini tashkil etgan [5; 70-b.]. Ammo ularga maishiy xizmat ko‘rsatish past darajada bo‘lib, jumladan, bolalar bog‘chalari yetishmas, mavjudlarida sharoit yetarli darajada emas edi. Ishlayotgan ayollarning farzandlari, asosan, dala bog‘chalariga qamrab olingan. Rejaga ko‘ra, respublika Xalq Maorifi Ministrligiga qarashli maktabgacha tarbiya muassasalariga 15125 nafar bolalar o‘rniga 14687 nafar, kolxoz bog‘chalari va yaslilariga 154000 nafar o‘rniga 120600 nafar tarbiyalanuvchilar tarbiyalangan [18; 19-b.].

Ko‘rib o‘tilayotgan yillarda kolxoz va sovxozlardagi mavsumiy bog‘chalarining moddiy-texnik bazasi doimiy faoliyat yuritgan maktabgacha tarbiya muassasalari holatiga qaraganda, ancha zaif bo‘lgan. Sovxozi maktabgacha tarbiya muassasalari va kolxoz mavsumiy bog‘chalarining qattiq va yumshoq jihozlar, o‘yinchoqlar, o‘quv kitoblari va boshqa zarur ashyolar bilan ta’milnish holati doimiy faoliyat ko‘rsatuvchi bog‘chalarga nisbatan ancha nochor edi. Shaharlardagi bog‘cha binolari tez fursatlarda qurilgan bo‘lsa-da, qishloqlardagi ahvol boshqacha edi. Sanoqli kolxozlarda bog‘cha uchun mo‘ljallangan binolar o‘z vaqtida qurib bitkazilgan. Xususan, 1953-yilda Farg‘ona oblasti Oxunboboyev rayoniga qarashli «Stalinchi» va Frunze nomli kolxozlarda, Farg‘ona rayonining “Mehnatkash” kolxzida, Toshloq rayoni «Stalin» va «Budyonniy» kolxozlarida, Quva rayoni «Malenkov» kolxozlarida maxsus loyiha asosida qurilgan yangi bog‘chalar faoliyat olib borgan [19; 21-b.]. Ayrim kolxozlarda qurilishi rejalashtirilgan bog‘cha binolari amalda qurilmagan. Ayrim maktabgacha tarbiya muassasalari moslashtirilgan binolarda yoki tarbiyachi kolxozchilarning uylarida faoliyat olib borgan.

Umuman olganda, qurilmagan bog‘cha binolari bilan bog‘liq holatlar 1960-yilgacha ko‘plab uchrab turgan. 1959-yil yanvar–avgust oylarida respublika bo‘yicha 16424 o‘rinli bolalar bog‘chasi qurilishi rejalashtirilgan bo‘lsa, yil yakuniga kelib qurilgan binolar 6624 o‘rinni tashkil etgan, yoki reja faqat 40 foizga bajarilgan. Shuningdek, shu yili 13425 o‘rinli yaslilar uchun maxsus bino qurish loyihalari tasdiqlangan, amalda 4598 o‘rinli binolar qurilgan, bu borada reja 34 foizga bajarilgan [20; 8-b.]. Bu kabi sustkashliklarga mablag‘larning o‘z vaqtida qurilish tashkilotlariga o‘tkazilmagani, yoki, zarur qurilish materiallari yetib kelmagani kabi sabablarni misol qilishimiz mumkin [21; 33, 39-141-b.].

Respublika bo‘yicha 1961-yilda 2929 ta bolalar bog‘chasi, qishloq xo‘jalik ishlari vaqtida yana 7 mingta mavsumiy bog‘chalar tashkillangan. Biroq, bu yetarli emas edi. Shu sabab ishchi xotin-qizlar orasida ishdan bo‘shab ketish holatlari ham ko‘paydi. Masalan, paxta tozalash va tola ishlab chiqarish korxonasida 1960-yilning 9 oyi ichida 223 nafar ayollar ishdan bo‘shab ketgan [5; 189-b.].

## XULOSA

Umuman, 1945-1960-O'zbekiston SSRda maktabgacha tarbiya muassasalari faoliyatiga bevosita bog'liq bo'lgan bir qator me'yoriy hujjatlar ishlab chiqilganiga va sohani rivojlantirish uchun qator vazifalar belgilab berilganiga qaramay, bu boradagi ishlarda ancha muammolar saqlanib qolgan. Chunki, mavjud materiallar tahlili ko'rsatadiki, o'rganilayotgan yillarda maktabgacha tarbiya muassasalarining ahvoli mintaqaning iqtisodiy ahvoliga bog'liq edi.

Ushbu davrda shahar va qishloq hududlaridagi maktabgacha tarbiya muassasalari o'rtasida katta farqlar bo'lgan. Bu farqlar birinchi navbatda bolalar bog'chalari soni va turlari bilan bog'liq edi. Xususan, shaharlarda qishloqlarga qaraganda ko'proq bolalar bog'chalari mavjud bo'lib, ularning qamrov doirasi ham, sharoitlari ham ancha yaxshi bo'lgan. Shuningdek, qishloq hududlarida doimiy faoliyat yurituvchi bolalar bog'chalari ham kam bo'lgan, ko'proq mavsumiy bog'chalar, ko'chma yaslilar hamda kolxoz bolalar maydonchasi shaklidagi maktabgacha tarbiya muassasalari faoliyat yuritgan.

## ADABIYOTLAR RO'YXATI (REFERENCES):

1. <https://lex.uz/docs/-5431797>
2. <https://kun.uz/news/2022/11/15/sarflangan-investitsiyalar-ortigi-bilan-qaytishiga-shubha-yoq-shavkat-mirziyoyev-maktabgacha-talim-sohasiga-etibor-aqida?q=%2Fuz%2Fnews%2F2022%2F11%2F15%2Fsarflangan-investitsiyalar-ortigi-bilan-qaytishiga-shubha-yoq-shavkat-mirziyoyev-maktabgacha-talim-sohasiga-etibor-haqida>
3. Nikolskaya A. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar tarbiyasida izchillik va o'zaro bog'lanish. – Toshkent: O'rta va oliv mifik, 1962. – B.3.
4. Бадалова М. Из истории развития дошкольного воспитания в Уз.ССР: Автореферат диссертации на соискание ученой степени доктора педагогических наук. – Тошкент, 1974. – С.35.
5. Jo'raeva N. O'zbekistonda xotin-qizlarga munosabat (XX asrning 20–80-yillari misolida). O'quv qo'llanma – Toshkent: O'zbekiston, 2013. – B.70.
6. O'zbekiston Milliy arxiv (keyingi o'rnlarda O'z MA), R.94-fond, 5-ro'yxat, 5471- ish, 12-varaq.
7. Maktabgacha tarbiya spravochnigi: asosiy qonuniy va instruktiv hujjatlar. – Toshkent: O'qituvchi, 1974. – B. 14.
8. O'z MA, R.94-fond, 5-ro'yxat, 4781-ish, 241-varaq.
9. O'zbekiston Respublikasi Andijon viloyati davlat arxiv (608-fond, 1-ro'yxat, 241-ish, 7-varaq).
10. O'z MA, 2591-fond, 1-ro'yxat, 104-ish, 4-varaq.

11. Ишанходжаева О. Педагогические основы становления и развития общественного дошкольного воспитания в Узбекской ССР (1924-1980 гг.) Дисс. на соиск. уч. степ. докт. пед. наук. – Ташкент, 1990. – С. 93.
12. O‘z MA, R.94-fond, 5-ro‘yxat, 4781-ish, 239-varaq.
13. O‘z MA, R.94-fond, 5-ro‘yxat, 5490-ish, 5-varaq.
14. O‘z MA, R.94-fond, 5-ro‘yxat, 5302-ish.1-varaq.
15. Tursunmuhamedova A. Bolalar muassasalari ishlarini yo‘lga qo‘yilishi mo‘l hosil garovidir.// O‘zbekiston xotin-qizlari. – 1951. – №6. – B.16.
16. Kolxoz mavsumli bolalar muassasalari to‘g‘risida nizom. – Toshkent: O‘zSSR sog‘liqni saqlash ministrligi davlat nashriyoti, 1964.
17. O‘z MA, 94-fond, 5-ro‘yxat, 6454-ish, 110-varaq.
18. Xalimova U. Sovet Ittifoqining xotin-qizlari –kommunizmni aktiv quruvchilari va tinchlik uchun kurashchilardir. – Toshkent: Qizil O‘zbekiston, 1954. – B. 19.
19. Farg‘ona viloyati davlat arxivi, 1-fond, 10-ro‘yxat, 32-ish, 21-varaq.
20. Статистический бюллетень. – 1959. №10. – С. 68.
21. Farg‘ona viloyati davlat arxivi, 1125-fond, 6-ro‘yxat, 1-ish, 33, 39-141-varaqlar.